

Komiljon Rahimov

(Toshkent, O'zbekiston)  
kom\_rah@mail.ru

## Mustamli Buxoriy va moturidiya ta'limoti

### Abstrakt

Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Mustamliy al-Buxoriy (vaf. 434/1043) tomonidan XI asrning boshlarida yozilgan "Sharh at-Ta'arruf li-mazhab at-tasavvuf" ("Tasavvuf yo'li bilan tanishuv" asariga sharh") asari nafaqat yurtimiz, balki butun islam olamida tasavvuf va kalomga bag'ishlab yozilgan asarlar orasida alohida o'rinn tutadi. Shu kunga qadar ushbu asar tasavvufga oid muhim manba sifatida anchagina keng o'rganilgan bo'lsa-da, uning kalom ilmidagi o'rni va ahamiyati haligacha tadqiqotchilar e'tiborini yetarli darajada o'ziga jalb qilmagan. Holbuki, tasavvufning islam dini, jumladan, sunniylik yo'naliшining hanafiylilik mazhabiga to'la muvofiq ekanligini isbotlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Mustamliy o'zining ushbu asarida tasavvuf bilan birgalikda kalomning asosiy masalalarini ham keng yoritib bergen. Ushbu maqolada Mustamliy Buxoriyning kalomga oid qarashlarida moturidiya kalom maktabi ta'limoti ta'siri to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Mustamliy Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Abu-l-Hasan Ash'ariy, Abu Bakr Kalobodiy, "at-Ta'arruf", "Sharh at-Ta'arruf", islam, imon, kalom, aqida, tasavvuf, taqdir, mazhab.

## Mustamli Bukhari and the Teachings of Maturidia

### Abstract

The work of Abu Ibrahim Ismail Ibn Muhammad Ibn Abdullah al-Mustamli al-Bukhari (d. 434/1043) Sharh at-Tarruf Li-mazhab at-tasawwuf ("Commentary on the work sufism Introduction to the way"), written in the early XI century, occupies a special place among the works devoted to Sufism and Kalam (dogmatics) not only in our country, but throughout the Islamic world. Although this work has so far been widely studied as an important source on Sufism, its role and significance in the science of Kalam has not yet attracted the attention of researchers. At the same time, in an effort to prove that Sufism fully corresponds to the Hanafi madhhab of Islam, including the Sunni trend, Mustamli Bukhari in his work, along with Sufism, widely covered the main issues of Kalam. This

article describes the influence of the teachings of the maturidiyyah Kalam school on Mustamli Bukhari's views on Kalam.

**Key words:** Mustamli Bukhari, Abu Mansur Maturidi, Abu-l-Hasan ash'ari, Abu Bakr Kalobodiy, "at-Ta'arruf", "Sharh at-Ta'arruf", Islam, Iman, Kalam, akida, Sufism, fate, madhhab.

## Kirish

X asr oxirlari – XI asrning birinchi yarmida Buxoroda yashab, ijod qilgan Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Mustamliy al-Buxoriy (vaf. 434/1043) qalamiga mansub "Sharh at-Ta'arruf li-mazhab at-tasavvuf" ("Tasavvuf yo'li bilan tanishuv" asariga sharh) asari uning tasavvuf ilmidagi ustozni Abu Bakr Kalobodiy Buxoriyning (305/917-385/995) "at-Ta'arruf li-mazhab ahl at-tasavvuf" ("Tasavvuf ahli yo'li bilan tanishuv") nomli hajman kichik kitobiga sharh sifatida yozilgan bo'lib, ushbu sharh har biri sharhlanuvchi asardan uch-to'rt barobar kattaroq hajmga ega bo'lgan to'rt rub'dan<sup>1</sup> iborat yirik bir asar ko'rinishini olgan. Mazkur asar nafaqat o'zining sharhlanuvchi asardan bir necha bor katta bo'lgan ulkan hajmi, balki unda o'rtaga tashlangan va tadqiq etilgan mavzular jihatidan ham sharhlanuvchi kitobdan ajralib turadigan mustaqil bir asar sifatida namoyon bo'lgan.

"Sharh at-Ta'arruf" tasavvuf, kalom hamda boshqa islomiylar va ijtimoiy fanlarga (jumladan, tafsir, hadis, fiqh, falsafa, psixologiya va b.ga) oid muhim manba hisoblansa-da, shu kunga qadar, asosan tasavvufshunoslik nuqtayi nazaridan birmuncha keng o'rganilgan [Minuviy 1948, 405-413; al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 33-119; Ravshan, Muhammad 1993, 12-13; Giloniy 1991, 58-107; Xolmo'minov 1994, 3; Mehdiy 1997, 40-52; Asrorova 2006, 33; Ravzotiyon 2010, 9-28; Tamidoriy 2011, 55-82; Yusefiy 2013, 158-161; Purnomdoriyon 2013, 17-20; Sattorov 2015, 130-134; Sattorov 2015, 69-76]. Biroq ushbu asarning kalom ilmidagi orni va ahamiyati, jumladan, Mustamliy Buxoriyning kalomiy qarashlari keng va chuqur tadqiq qilinmagan, uning qarashlarida qaysi kalom maktablarining ta'siri qanchalik ekanligi aniqlanmagan. Jumladan, ayrimlar "Sharh at-Ta'arruf" muallifining kalomiy qarashlarida Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944) ta'sirini ko'rsalar, boshqa ba'zilar uning kalom masalalarida Abu-l-Hasan Ash'ariy (260/874-324/936) ta'limotiga ergashganini ta'kidlashadi.

---

<sup>1</sup>"Rub'" so'zi arab tilida "to'rtdan bir" ma'nosini bildirib, muallifning ushbu so'zni qo'llashdan maqsadi asarning to'rt qismdan iboratligini, uning "rub'" deb atalayotgan har bir qismi uning to'rtdan biri ekanligini bildirish bo'lgan.

Ko'rinishidan ko'pchilik tadqiqotchilar Mustamliy Buxoriyingning aqida borasidagi qarashlarini baholashda ko'proq uning ustozи Abu Bakr Kalobodiyning qaysi kalom mактабига ergashganidan kelib chiqishadi. Gap shundaki, Kalobodiyning aqidaviy mazhabi borasida ham turli taxminlar bildirilgan. Jumladan, nemis sharqshunosi U.Rudolf Kalobodiyning kalomga oid qarashlarida faqatgina moturidiylik kalom mактabi unsurlarini ko'rsa [Rudolf 1999, 215], Knish Kalobodiyning "shofeyilik/ash'ariylik va hanafiylik kalom maktabalarining aqida masalalaridagi qarashlarini bir xilda to'g'ri deb bilganligi" to'g'risida xulosa chiqaradi [Кныш 2004, 139]. Kalobodiyning aqida masalalaridagi qarashlarini maxsus tadqiq qilgan eronlik tadqiqotchi Ali Mehmonnavoz esa ularda hanafiylik (Movarounnahr an'anaparast faqihlar mактabi, moturidiya kalom mактabi va Bag'dod so'fiylik mактabi) aqidalari bilan birgalikda ash'ariylik kalom mактabi nuqtayi nazarlarining ham aks etganini aytib, Kalobodiyning ushbu aqidaviy maktablar qarashlarini tasavvuf foydasiga umumlashtirishga uringani to'g'risida so'z yuritadi [Mehmonnavoz 2016, 204]. Biroq, yuqorida eslatib o'tganimizdek, "Sharh at-Ta'arruf" shunchaki "at-Ta'arruf" asarining oddiy sharhi emas, balki ko'pgina jihatlariga ko'ra alohida asar bo'lib, unda Mustamliyning aqidaga oid mustaqil qarashlari ham joy olgan. "Sharh at-Ta'arruf"dan joy olgan turli aqidaviy mazhablar va oqimlar hamda mutakallimlar to'g'risidagi ma'lumotlar sharhlanuvchi asar – "at-Ta'arruf"da uchramaydi.

Keyingi yillarda bir qator eronlik tadqiqotchilar tomonidan "Sharh at-Ta'arruf" asarining kalomiy jihatlarini o'rganishga bo'lgan ayrim urinishlar kuzatilmoxda. Biroq ushbu tadqiqotlarda Mustamliy Buxoriy kalomiy qarashlarining faqatgina alohida tanlab olingan ayrim jihatlari tadqiqot obyektiга aylantirilgani, umuman, "Sharh at-Ta'arruf" asariga, xususan, unda yoritilgan aqidaviy masalalarga qamrovli va tizimli yondashuvning mavjud emasligi, bu to'g'rida muayyan kamchiliklardan xoli bo'lмаган, xato va ba'zida butunlay teskari xulosalarning chiqarilishiga sabab bo'lgan.

Aytib o'tish lozimki, eronlik tadqiqotchi Ahmad Sami'iy Giloniy "Sharh at-Ta'arruf"ning "kalomiy adabiyotdagi yuksak o'rni"ni e'tirof etgan ilk tadqiqotchi bo'lsa-da, u asarning kalomga oid manba sifatidagi ahamiyatiga to'xtalib o'tirmagan [Giloniy 1992, 12]. Mustamliy Buxoriyning kalomiy qarashlarini birinchi bo'lib tadqiq qilishga uringan Mino Rominsobit esa, birinchidan, ushbu qarashlarni "Sharh at-Ta'arruf"ning kalomga bag'ishlangan barcha boblari asosida emas, balki faqatgina ushbu asarning turli

o'rinlarida keltirilgan hikoyatlar asosida tahlil qilgani, ikkinchidan, masalaga qamrovli yondashmagani sababli turli kalom maktablari va ta'limotlarining Mustamliy qarashlariga ta'sirini unchalik chuqur o'rganib o'tirmagan. Jumladan, u ushbu qarashlarda hokim bo'lган moturidiya kalom ta'limoti unsurlarini payqay olmagan va natijada Mustamliy Buxoriy qarashlarida faqatgina ash'ariya kalom maktabi ta'sirini ko'rgan [Rominsobit 2015, 29-30].

Moturidiya ta'limotining Mustamliyning kalomga oid qarashlariga ko'rsatgan ta'siriga birinchi bo'lib e'tibor qaratgan boshqa bir eronlik tadqiqotchi Hasan Ansoriy ushbu qarashlarda ash'ariya kalomi unsurlarining ham mavjudligini inkor etmagan holda, "Sharh at-Ta'arruf" muallifiga ko'proq moturidiya kalom maktabi vakili sifatida qarashga mayl bildiradi. Biroq mazkur tadqiqotchi ham o'zining ilmiy axborot sifatidagi kichik materialida Mustamliyning kalomga oid qarashlari bilan moturidiya ta'limoti o'rtasidagi mushtarak jihatlarga bat afsil to'xtalib o'tirmagan [Ansoriy 2017, 1]. Buning ustiga u ham boshqa ko'pchilik eronlik tadqiqotchilar kabi "Sharh at-Ta'arruf"da Abu Mansur Moturidiy nomining bor-yo'g'i bir marta, Abu-l-Hasan Ash'ariy nomining esa ikki marta eslatilganiga urg'u berib o'tadi: "Mustamliy o'z asarida faqatgina bir marta, u ham kalomga oid masalada emas, balki tafsirga oid bir masalani bayon qilishda Xoja Abu Mansur Moturidiy nomini eslatgan [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 373].

Holbuki, u mazkur asarda ikki marta Abu-l-Hasan Ash'ariy nomini ehtirom bilan, uning muhim kalomiy masalalar borasidagi qarashlarini misol keltirgan holda eslatgan va uni "bizning shayximiz" va "imom shayx" deb atagan [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 339-1513].

Shu o'rinda ko'pchilik eronlik tadqiqotchilar tomonidan Mustamliy Buxoriyning ash'ariya kalom maktabi vakili ekanligi to'g'risida xulosaga kelinishiga [Jahongiriy 2004, 121] asosiy sabablardan biri bo'lishi mumkin bo'lган ushbu dalilni – "Sharh at-Ta'arruf" muallifi tomonidan Moturidiy bir marta, Ash'ariyning esa ikki marta eslatishi tafsilotlarini (garchi quruq ushbu faktning o'zi Mustamliy ergashgan kalom maktabi to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'lmasa-da) tekshirib ko'rishga qaror qildik.

Mustamliy Buxoriy "Sharh at-Ta'arruf"ning "Ularning ro'yat to'g'risidagi aytganlari" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 373-408] deb nomlangan, ya'ni kalom masalalaridan bo'lmish ru'yat masalasiga bag'ishlangan oltinchi bobida Moturidiy qarashlariga quyidagi tarzda to'xtalib o'tadi:

“Xoja Abu Mansur Moturidiy Alloh taoloning “Albatta, “Rabbimiz – Alloh”, – deb so’ngra to’g’ri bo’lgan zotlar” [deb boshlanuvchi] oyati [ma’nosijni: “Kechiruvchi va mehribon zot huzuridan tushirilgan ehson”, deb tafsir qiladi [Куръони карим, Фус-силат сураси, 30-оят]. [Ushbu tafsirga ko’ra,] Alloh taolo jannatni “tushirilgan ehson” deb atadi. Ehson podshohlarning hadyasi hisoblanmaydi, balki yo’lovchilar podshoh bilan yana ko’rishi maqsadida charchoqlarini chiqarishlari va safar mashaqqatlaridan xalos bo’lishlari uchun ularning yo’llariga ehson tashlaydilar. Agar jannatdan yaxshiroq ne’mat bo’lmaganida edi, [Alloh] jannatni “tushirilgan ehson” deb atamagan bo’lardi. Shuningdek, ulug’ va buyuk Alloh “Parvardigorlari ularga pok ichgulik ichirur” [Куръони карим, Инсон сураси, 21-оят], deb aytgan. [Ya’ni bu o’rinda Alloh:] “Ichgulikni boshqaning qo’li bilan emas, balki o’zim ichiraman. Agar ichgulikni boshqa kishining qo’li bilan ichirsam, o’sha kishini ko’rasan. [Shunga ko’ra,] meni ko’rishing uchun [seng ichgulikni] o’zim ichiraman”, demoqda” [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 373].

Ushbu iqtibosdan ko’rinib turibdiki, birinchidan, Mustamliy Buxoriy bu o’rinda Moturidiyning nomini, Ansoriy ta’kidlaganidek, kalom bilan bog’liq bo’lmagan masalada emas, balki aynan kalomga oid bo’lgan ru’yat masalasida eslatib o’tmoqda, ikkinchidan, ushbu bobda Mustamliy o’zining ru’yat masalasida Moturidiy qarashlariga ergashganini ma’lum qilmoqda.

Endi “Sharh at-Ta’arruf” asarida ash’ariya kalom maktabi asoschisi Abu-l-Hasan Ash’ariy nomining eslatilishiga to’xtalsak. Mustamliy haqiqatdan ham o’z asarida Ash’ariyni ikki o’rinda eslatib o’tgan. Biroq ushbu eslatishda “Sharh at-Ta’arruf” muallifining kalom masalalarida ash’ariya ta’limotiga ergashishi unchalik ham yaqqol kuzatilmaydi. Mustamliy Buxoriy, jumladan, “Sharh at-Ta’arruf”-ning Alloh sifatlariga bag’ishlangan “Ularning sifatlar to’g’risida aytganlari” [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 307-339] nomli to’rtinchi bobida Allohnинг azaldan yaratuvchi bo’lgani to’g’risida so’z yuritish asnosida Abu-l-Hasan Ash’ariyning bu boradagi qarashlariga quyidagicha to’xtalib o’tadi:

“Shayx Imom Abu-l-Hasan Ash’ariy (r.a.) biz so’z yuritayotgan ushbu masala to’g’risida yaxshi bir gap aytgan bo’lib, u quyidagidan iborat: “[Allohni] azaliy yaratguvchi deb ataylik, ammo azalda yaratguvchi bo’lgan deb atamaylik”. [Abu-l-Hasan Ash’ariy] bu gapda shunday demoqchi bo’lgan: “Alloh azaldan yaratguvchi sifatiga ega bo’lgan, deylik, ammo azalda yaratgan, demaylik. Shunda biz unga

yangi nom bermagan bo'lamiz" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 339].

Qizig'i shundaki, Mustamliy Buxoriy xuddi Moturidiy kabi Allohning azaldan yaratguvchi va rizq berguvchi bo'lganiga ishongan [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 1-339; Moturidiy 2005, 173], holbuki, ash'ariya kalom maktabi vakillari Allohning yaratish va rizq berishdan oldin yaratguvchi va rizq berguvchi bo'limganligini uqtirishadi [al-Bayoziy 1989, 51; Shayxzoda 1899, 17]. Shundan kelib chiqib taxmin qilish mumkinki, Mustamliy bu o'rinda ayni masala borasida ash'ariya ta'limotiga ergashmayapti, balki Ash'ariyning o'zi Allohning azaldan yaratguvchi va rizq berguvchi bo'limganligini butunlay inkor qilishmagani, aniqrog'i bu qarashni ma'lum shartlar bilan qabul qilganligini uqtirmoqda.

"Sharh at-Ta'arruf"da Abu-l-Hasan Ash'ariyning nomi ikkinchi bor esa umuman kalomga emas, balki tasavvufga oid masalalar bilan bog'liq ravishda eslatiladi. Mutamliy Buxoriy o'z asarining so'fiylikdagi g'aybat va shuhud masalasiga bag'ishlangan qirq sakkizinch bobida Ash'ariyga quyidagicha to'xtalib o'tadi:

"Shayx Imom Abu-l-Hasan Ash'ariy (r.a.) shunday deydi: "Faqatgina Alloh o'ziga qoyim bo'ladi. Chunki faqat hech kimga ehtiyoji bo'limgan kishigina o'ziga qoyim bo'ladi. Bu sifat esa ulug' va buyuk Haqqagini xosdir. Haqdan past bo'lgan kishining esa Haqqa ehtiyoji bo'ladi" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 1513].

"Sharh at-Ta'arruf"da moturidiya va asha'ariya kalom maktablari asoschilarini nomlarining qanday eslatib o'tilganligi to'g'risidagi ushbu mulohazalarimizdan Mustamliy Buxoriyning hozir eslatib o'tilgan o'rnlarda kalom masalalarida Ash'ariyidan ko'ra Moturidiyga ko'proq e'tibor qaratganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, "Sharh at-Ta'arruf"da kalom maktablari asoschilarini nomlarining eslatilishiga tayanib Mustamliyning kalom ilmida kimga ergashgani to'g'risida xulosa chiqarib bo'lmasligi, balki buning uchun mazkur asardan joy olgan kalomiy qarashlarni ushbu mutakallimlar qarashlari bilan bevosita solishtirish lozimligini ko'rsatadi.

Buning uchun avvalo "Sharh at-Ta'arruf" asarining kalomga bag'ishlangan qismiga nazar tashlasak. Yuqorida aytib o'tganimizdek, "Sharh at-Ta'arruf" asosan tasavvuf va kalomga bag'ishlangan asar bo'lib, ushbu asar boblarini tematik jihatdan shartli ravishda tasavvufga (1-2, 24-68-boblar) va aqidaga (3-23-boblar) oid qismlarga bo'lish mumkin.

"Sharh at-Ta'arruf"ning 21 bobdan iborat bo'lgan aqidaga oid qismida kalom ilmining tavhid, Allohning sifatlari, Allohning

ismlari, Qur'on, Allohning so'zi, ro'yat, qadar, ishning yaratilishi, qudratning yaratilishi, istitoat, jabr, aslah, va'id, shafoat, me'roj, ro'yo, go'daklarning gunohkor bo'lish-bo'lmasligi, aqlan sog'lom kishilarning burchlari, Allohn bilish, ruh, farishtalar, rasullar, nabiylardan yanglishishlar va kabira gunohlar sodir bo'lish-bo'lmasligi, valiylar va imon kabi mavzulari ikki – mutakallimlar va so'fiylar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Ya'ni bunda, birinchi bo'lib, aqidaga oid masalalarning sunniylik kalom mакtablari nuqtayi nazaridan bo'lgan talqini, ikkinchi bo'lib esa Mustamliy nazdida sunniylik kalom mакtablari qarashlari bilan muvofiq bo'lgan so'fiylar aqidalari bayon etiladi.

Aytish lozimki, "Sharh at-Ta'arruf" kalomga oid masalalarning ahli sunnat val-jamoat mazhabi talqinidagi bayonidangina iborat bo'lib qolmay, unda asar mualifining mazkur mazhabga muxolif bo'lgan aqidaviy mazhablar va oqimlarning qarashlariga qarshi ayovsiz kurashi ham aks etgan. Nafaqat kalomga oid mavzularning umumiy va juz'iy tomonlarini batatsil yoritish, balki ahli sunnat val-jamoat, xususan, hanafiy mazhabi aqidalarining islomdagi boshqa aqidaviy oqimlar va mazhablar aqidalariga nisbatan to'g'ri ekanligini o'zaro taqqoslash orqali isbotlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Mustamliy Buxoriy o'z asarida ahli sunnat val-jamoat pozitsiyasidan turib rofiziylarning (shialarning), moturidiylik va ash'ariylik kalom mакtablari pozitsiyasidan turib mo'taziliylar, qadariylar, karromiyalar, qarmatiylar va boshqalarning, shuningdek, so'fiylar pozitsiyasidan turib tasavvuf muxoliflarining qarashlarini tanqid ostiga olgan, ularning noto'g'ri ekanligini asoslashga uringan.

"Sharh at-Ta'arruf"da kalom masalalariga moturidiya va ash'ariya kalom mакtablari nuqtayi nazaridan yondashilgani, jumladan, yuqorida eslatib o'tilganidek, unda Abu Mansur Moturidiy Abu-l-Hasan Ash'ariy nomlarining eslatilgani Mustamliy o'zining kalomga oid qarashlarini bayon etishda, shuningdek, sunniylikdan boshqa mazhablar va oqimlar qarashlarini tanqid qilishda mazkur mutakallimlar asarlariga tayanganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, aniqlab oldikki, Mustamliy kalomga oid masalalarga ahli sunnat val-jamoat aqidasi nuqtayi nazaridan yondashgan bo'lib, bunda sunniylikda mavjud bo'lgan ikki kalom mакtabi – moturidiya va ash'ariya ta'limotlariga tayangan. Bizning bu o'rindagi vazifamiz esa Mustamliyning mazkur kalom mакtablaridan har biriga qay darajada ergashganini aniqlashtirishdir.

Moturidiya va ash'ariya ta'limotlari har birining Mustamliy aqidalariga ta'siri darajasini ko'rib chiqishdan oldin ushbu ikki

kalom maktabi ta'limoti ko'pchilik masalalar bo'yicha bir xil qarashga ega bo'lib, ayrim masalalardagina bir-biridan farqli yoki qarama-qarshi nuqtayi nazarda ekanliklarini eslatib o'tishga to'g'ri keladi. Moturidiya va ash'ariya kalom maktablari qarashlaridagi ushbu kam sonli farqlarning kelib chiqish manbasi shundaki, Abu Mansur Moturidiy fiqhda hanafiylik mazhabiga ergashgan bo'lib, o'z kalomiy mulohazalarida naqldan foydalanish bilan birga aqlga kattaroq e'tibor berardi. Abu-l-Hasan Ash'ariy esa shofiiylik mazhabida bo'lib, ushbu mazhab vakillari kabi aql va naqlni teng deb bilmas, aql va naql ziddiyati bo'lgan ko'pgina o'rnlarda naqlning tarafini olardi [Gulpoyagoniy 1994, 118; Subhoniy 2002, 65].

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha Moturidiy o'z kalomiy qarashlarida ash'ariylik va mu'taziliylik o'rtasida, Ash'ariy esa ahli hadis va mu'taziliylik o'rtasida harakatlanadi. Misrlik ilohiyotshunos Muhammad Abu Zahra bu to'g'rida shunday degan: "Moturidiy uslubida aql ko'proq hukmrondir, ammo ash'ariylar naql uslubiga tayanib, uni aql bilan tasdiqlashadi. Ash'ariylik ahli hadis va mu'taziliylik o'rtasida, moturidiylik esa ash'ariylik va mu'taziliylik o'rtasida turadi" [Abu Zahra 1996, 179].

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqqan holda, Mustamliy Buxoriyning kalomga oid barcha masalalarda emas, balki faqatgina moturidiya va ash'ariya kalom maktablari ta'limotlarida turlicha talqin qilingan asosiy masalalarda ushbu maktablardan qay biriga ergashganligini aniqlashtirishga urinib ko'ramiz.

"Sharh at-Ta'arruf"ning aqidaviy masalalarga bag'ishlangan qismini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, Mustamliy Buxoriy moturidiya va ash'ariya kalom maktablari qarashlarida ixtilofli bo'lgan masalalardan faqatgina to'rttasida ash'ariylarga, o'n bittasida esa moturidiylarga ergashgan. Jumladan, Mustamliy Buxoriy quyidagi o'rnlarda ash'ariylarning moturidiya aqidasiga muvofiq kelmaydigan qarashlarini ma'qullagan:

### **1. Ish-harakatning yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlash.**

Moturidiylar narsalarning yaxshi yoki yomon ekanligini mohiyatan va aql yordamida aniqlash mumkinligiga ishonishadi [al-Bayoziy al-Hanafiy 1989, 54], holbuki, ash'ariylar e'tiqodicha ish-harakatning yaxshi yoki yomon ekanligini faqatgina shariat amr va nahiy orqali belgilab beradi [Juvayniy 1995, 107]. Mustamliy moturidiylardan farqli ravishda ish-harakatning yaxshi yoki yomon ekanligini aql yordamida aniqlash mumkin emas, balki ish-harakatlarning yaxshi yoki yomon ekanligi Allohning hukmiga tobedir, degan qarashga ega: "Bizning yo'limiz shuki, yaxshi narsa

amrga ko'ra yaxshi, yomon narsa esa nahiyya ko'ra yomondir. Qay ish-harakatni qilishga buyurgan bo'lsa, o'sha ish-harakat amrga ko'ra yaxshi, qaysi ish-harakatdan qaytargan bo'lsa, o'sha ish-harakat nahiyya ko'ra yomondir. O'z kuzatishlarimiz bilan nahiyy qilingan narsalardan boshqa biror bir yomon ish-harakatni yoki amr qilingan narsalardan boshqa biror bir yaxshi ish-harakatni aniqlay olmadik" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 494].

## **2. Alloh tomonidan yomon ishning sodir bo'lismasligi.**

Moturidiylar Hakim zot bo'lmish Alloh tomonidan yomon ishning sodir bo'lishi mumkin emas, desalar [Moturidiy 2006, 178], ash'ariylar Allohnинг barcha ishlari adolat bo'lib, u barcha narsalarning haqiqiy egasi ekan, Ega o'z mulkini o'zi istaganicha tasarruf qilishi mumkin, degan qarashga ega. Ular shu asosda Allohnинг ishi, hatto bizning nazarimizda yomon bo'lib ko'ringan ishni qilgan taqdirida ham, yomon deb sifatlanmaydi, chunki yaxshilik va yomonlik shar'iy tushuncha bo'lib, u Alloh tomonidan belgilanadi, deydilar [Jaloliy 2007, 335; Shayxzoda 1899, 30]. Mustamliy Buxoriyning e'tiqodicha inson Allohnинг ishlarining yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlash uchun kerakli salohiyatga ega emas. Ishlarning yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlashning yagona me'yori Allohnинг amri va nahiysidir. Allohga amr va nahiyy qiladigan Undan yuqoriq turadigan biror narsa bo'limgani sababli uning ishlari yomon deb sifatlanmaydi. U shunday deydi: "Undan biror bir yomon ish sodir bo'lmaydi. Chunki U yomonga aylantirgan narsagina yomon, U yaxshiga aylantirgan narsagina yaxshidir... Biz o'z kuzatishlarimiz bilan nimaniki yomon deb topgan bo'lsak, nahiyya asoslanib topdik, nimaniki yaxshi deb topgan bo'lsak, amrga asoslanib topdik" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 494-496].

## **3. Toat qiluvchini azoblash va osiyni mukofotlash.**

Moturidiylar Alloh tomonidan toat qiluvchining azoblanishi va osiyning mukofotlanishini shar'iy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham joiz emas, deb topganlar [Moturidiy 2005, 172]. Ammo ash'ariylar Alloh tomonidan toat qiluvchining azoblanishi va osiyning mukofotlanishini aqliy tomongan joiz deb bilishadi. Chunki, ularning e'tiqodicha, bu ish Alloh tomonidan o'z mulkini tasarruf etish bo'lib, zulm hisoblanmaydi. Mustamliy bandani azoblash va mukofotlashni aqlga muvofiq emas, balki va'd va va'idga muvofiq Allohga vojib deb bilar ekan, mukofot va jazoni bandaning ishiga emas, balki Allohnинг irodasiga bog'liq deb biladi [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 476-477].

#### **4. Baxtiyorlik va baxtiqarolik.**

Moturidiylarning e'tiqodicha, baxtiyorlik va baxtiqarolik hozirgi zamonga (ayni vaqtga) xos bo'lgan holatlar bo'lib, azaliy va abadiy emasdir. Shunga ko'ra, baxtiyor ayni vaqtdagi mo'min bo'lib, u umrining oxirigacha bo'lgan vaqt davomida kofir bo'lib, baxtiqaroga aylanishi, baxtiqaro esa ayni vaqtdagi kofir bo'lib, u umrining oxirigacha bo'lgan vaqt davomida mo'min bo'lib, baxtiyorga aylanishi mumkin [Moturidiy 2006, 161]. Ash'ariylarning e'tiqodicha esa baxtiyorlik imon bilan tugallangan, baxtiqarolik esa kufr bilan tugallangan holat bo'lib, Allohning azaliy ilmi o'shang tegishlidir. Shu sababli Alloh baxtiyor qilib yaratgan banda baxtiyor, Alloh baxtiqaro qilib yaratgan banda baxtiqarodir. Allohning ilmi hech qachon xilof kelmasligi sababli baxtiyor doimo baxtiyor va baxtiqaro doimo baxtiqaro bo'lib qoladi, yaxshi yoki yomon amallari ularning taqdirlariga ta'sir qilmaydi [Ash'ariy 1999, 225; Abu Azaba 1996, 36; Shayxzoda 1899, 46]. Mustamliy Buxoriy ham ash'ariylar kabi baxtiyorlik va baxtiqarolik oldindan belgilangan holatlar bo'lib, insonning amallari uni belgilash yoki o'zgartirishga hech qanday ta'sir ko'rsatolmaydi, degan qarashga ega [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 668].

Aytib o'tganimizdek, Mustamliy Buxoriyning moturidiya kalom maktabi qarashlariga muvofiq keladigan qarashlari bir muncha ko'proqdir. Jumladan, u imon, Allohning sifatlari, Allohning ne'mati, jabr va ixtiyor, bandaning toqati bilan bog'liq bir qator masalalarda moturidiya aqidalariga ergashgan. Quyida ushbu masalalarni umumiy tarzda ko'rib chiqamiz.

##### **1. Imon bilan bog'liq masalalar.**

###### **1.1. Imonning ta'rifi.**

Turli aqidaviy mazhablar, oqimlar va maktablarda imonning ta'rifi to'g'risida turlicha qarashlarga ega bo'lganlar. Imonni ulardan biri ko'ngil bilan tasdiqlashdan, boshqasi til bilan iqror keltirishdan iborat deb bilsalar, ba'zilar imon tasdiq va iqrorni, boshqa ba'zilar esa tasdiq, iqror va amalni o'z ichiga oladi, deganlar [Ash'ariy 1993, 123; Qoriy 2007, 142].

Moturidiya va ash'ariya kalom maktablarida amal imonning asosiy ustunlaridan biri hisoblanmaydi. Shunga qaramasdan ular imon ta'rifida turlicha qarashlarga egalar. Moturidiya kalom maktabi vakillaridan ayrimlari faqatgina ko'ngil tasdig'iga e'tiqod qilib, til iqrorni imon belgisi va musulmonlik hukmlarining bajarilish sharti deb bilsalar-da [Jaloliy 2007, 169-170; Qoriy 2007, 142], ushbu ta'limotda ko'ngil tasdig'idan tashqari til iqrori ham imonning

boshqa bir ustuni sifatida zaruriyigini ta'kidlash ustunroq turadi [Moturidiy 2005, 165]. Ash'ariylar nazdida esa imon Allojni qalb bilan tasdiqlash bo'lib, til va amaldagi tasdiq imonning far'lari – ikkinchi darajali tarmoqlari hisoblanadi [Ash'ariy 1993, 123; Subhiy 1985, 84].

Mustamliy Buxoriyning e'tiqodicha imon ikki qismidan – ko'ngil bilan tasdiqlash va til bilan iqror keltirishdan iboratdir. U bu to'g'rida shunday degan: "Imon hadis ahlining nazdida so'z, amal va tasdiqdan, mutakallimlar nazdida bирgina tasdiqdan, karromiyalar nazdida bирgina so'zdan, bizning nazdimizda esa tasdiq va iqrordan iborat" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 1035]. Ko'rib tur-ganimizdek, Mustamliy Buxoriy imonning ta'rifi masalasida moturidiya aqidasiga ergashgan.

### **1.2. Imonning ko'payishi va kamayishi.**

Imon borasida bahsli masalalardan yana biri imonning ko'payishi va kamayishi masalasıdır. Moturidiylar e'tiqodiga ko'ra imon ko'payish va kamayish qobiliyatiga ega emas. Chunki imon payg'ambar olib kelgan narsalarni tasdiqlash bo'lib, bu tasdiq bir tarkiblidir va u ko'paymaydi ham, kamaymaydi ham. Ularning aytishlaricha, imon amal ham uning shartlaridan bo'lgan taqdirdagina ko'payishi yoki kamayishi mumkin bo'ladi, shunda toatning kamayishi yoki ko'payishiga mutanosib ravishda imon ham kamayadi yoki ko'payadi. Ash'ariylar, garchi moturidiylar kabi amalni imon tushunchasidan tashqarida bilgan bo'lsalar-da, imonning ko'payishi yoki kamayishini mumkin deb biladilar. Ularning fikricha, oddiy kishilarning imoni nabiylarning imoni bilan teng emas, shunga ko'ra imon kam yoki ko'p bo'lishi mumkin [at-Taftazoniy 1989, 210–211; Jaloliy 2007, 187–188; Subhiy 1985, 144].

Mustamliy Buxoriy moturidiylarga ergashgan holda, imonning ko'payishi yoki kamayishini inkor etib shunday deydi: "Bizing mazhabimizda imonning ko'payishi yoki kamayishi mumkin emasdir. Chunki imon tasdiqdan iborat bo'lib, tasdiq tasdiqlanuvchi ko'paygandagina ko'payishi, tasdiqlanuvchi kamaygandagina kamayishi mumkin bo'ladi. Ammo Allohnинг ko'payishi yoki kamayishi mumkin emas ekan, Uni tasdiqlashning ham ko'payishi yoki kamayishi mumkin emasdir" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 1035].

### **1.3. Imonda istisno.**

Imonda istisno deganda bandaning o'z imoni to'g'risida "men mo'minman, insha'aloh", deb aytishi tushuniladi. Moturidiylar imonda istisno qilishni joiz deb bilmaganlar. Ularning e'tiqodicha

istisno shubha va ikkilanish belgisi bo'lib, imon biror bir ikklanishsiz va qat'iy bo'lmos'i lozim [Moturidiy 2006, 280; 2005, 165]. Ammo ash'ariylar imonda istisno qilishni joiz deb bilganlar. Ularning e'tiqodicha, istisno bandaning o'zida imonning borligi yoki yo'qligiga nisbatan bo'lgan shubhasi emas, balki o'zidagi imonning o'limiga qadar bo'lgan davrda saqlanib turishi yoki saqlanib turmasligiga nisbatan bo'lgan shubhasidir. Chunki mo'min imoni umrining oxirigacha saqlanib qoladimi yoki yo'qmi, bilmaydi [Abu Azaba 1996, 29; at-Taftazoniy 1989, 215-216].

Mustamliy Buxoriy "Sharh at-Ta'arruf"da imondagi istisno masalasiga to'xtalib, imon va e'tiqodning shubha obyekti bo'la olmasligini aniq-ravshan bayon etgan. Jumladan u shunday degan: "Banda o'z imoniga nisbatan yaqiyini bo'lmaguniga qadar mo'min bo'lolmaydi, bordi-yu uning tasdig'iga shubha aralashadigan bo'lsa, kofirga aylanadi" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 1036]. Shuning o'zi Mustamliy Buxoriyning imondagi istisno masalasida ham moturidiylar qarashlarini ma'qullaganligi ma'lum bo'ladi.

#### **1.4. Imonda taqlid.**

Imonda taqlid deb kishining o'zi chaqirilgan dinni qabul qilishi hamda ushbu dinning haqqoniyligiga biror bir dalili bo'lmasdan turib, chin ko'ngildan uning haqqoniyligiga imon keltirishiga aytildi. Mutakallimlar taqlidiy imonning to'g'riliqi yoki noto'g'riliqi borasida turli qarashlarni bildirganlar. Moturidiylar taqlidiy imonni to'g'ri deb bilib, imonning asosi tasdiq bo'lib, taqlidiy imonda bunday tasdiq mavjuddir, deganlar. Abu Mansur Moturidiyning e'tiqodicha, barcha diniy masalalarning aqliy dalilga ega bo'lishi shart emas. Jumladan, kishi o'z e'tiqodini Rasulning so'zi asosida shakllantirsa, sodiq hisoblanadi va mana shuning o'zi uning imonining to'g'riliqi uchun yetarlidir [Moturidiy 2005, 166]. Ash'ariylar moturidiylarga qarama-qarshi o'laroq "Imon asosiy masalalardan bo'lib, aqidalar va diniy asoslarda taqlidning o'zi yetarli emas. E'tiqod uchun qat'iy dalil kerakdir", deyishgan [Subhiy 1985, 85].

Mustamliy Buxoriy o'z kitobining bir necha o'rnida, xuddi moturidiylar kabi, taqlidchining mo'min ekanligini uqtirib o'tgan. Jumladan u shunday degan: "Musulmonlarning ahli sunnatval-jamoat mazhabidagilar nazdida imonga taqlid qiluvchilar mo'mindirlar, xuddi dalil keltiruvchilar mo'min bo'lganlari kabi" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 536]. U bu to'g'rida yana shunday degan: "Kufrga taqlid qilgan kishi kofirga aylanishi to'g'risida barcha bir xil fikrda ekan, imonga taqlid qilgan kishi ham mo'minga aylanishi aniq bo'ldi" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 537]. U boshqa bir o'rinda

shunday deydi: "Imonning to'g'ri bo'lishi sharti bandaning imon keltirgan narsasini to'laligicha bilishidan iborat emas. Bandaning haq bo'lgan barcha narsaga yuzlanishi va botil bo'lgan barcha narsadan yuz o'girishining o'zi bilan imon shakllanadi. ... Biz: "Alloh o'zi iroda qilib buyurganlariga hamda payg'mbarning o'zi iroda qilib buyurganlariga imon keltirdik", desak imonimiz shakllangan bo'ladi. Shundan keyin bularning barchasining ma'nosini bilishimiz vojib emas" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 324-325].

### 1.5. Imon va islom.

Mutakallimlar imon va islom bir narsami yoki bu ikkalasi bir-biridan alohida tushunchalarmi, degan masalada turlicha fikrlar bildirganlar. Moturidiylarning e'tiqodicha, imon va islom lug'aviy jihatdan bir-biridan farq qilsa-da, mohiyati jihatidan birtushunchadir, ya'ni, har bir mo'min musulmon va har bir musulmon mo'mindir [Moturidiy 2006, 498-499; Jaloliy 2007, 187-188]. Ash'ariylar esa imon va islomni boshqa-boshqa narsalar deb biladilar. Ularning e'tiqodicha islom imondan boshqa narsa bo'lib, har bir mo'min musulmon, ammo har musulmon ham mo'min emasdir [Ash'ariy 1999, 48; at-Taftazoniy 1989, 206-207].

Mustamliy Buxoriy o'zining bu to'g'ridagi qarashini quyidagicha bayon qilgan: "Biz shariat hukmi bo'yicha kimdaki islom ko'rsak, uni mo'min deb ataymiz. Islom imon bo'lib, islom zohir va imon botindir. Ammo zohirdagi islom botindagi imonga dalil, dalil esa g'oyib narsaga keltirilishi kerak, botin esa bizdan g'oyib ekan, zohir daliliga qarab g'oyib to'g'risida hukm chiqarib, uni mo'min deb ataymiz. Bordi-yu undan kufr zohir bo'lsa, oldingi zohirni bu zohir bilan unutamiz" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 1078]. Ko'rib o'tganimizdek, Mustamliy imon va islom masalasida ham moturidiylarga ergashgan.

## 2. Allohning sifatlari bilan bog'liq masalalar.

### 2.1. Takvin (bo'ldirish).

Moturidiylar va ash'ariylar o'rtasidagi ixtilofli masalalardan biri Allohning yaratish, rizq berish, jon bag'ishlash va jon olish kabi ishlarining sifatlari hamda ushbu sifatlarning azaldan mavjudligi yoki keyin paydo bo'llganligi to'g'risidagi masaladir. Moturidiylar Alloh sifatlarining zot sifatlari va ish sifatlariga bo'linishiga qarshi chiqishadi hamda barcha ish sifatlarini *takvin* deb nomlanuvchi boshqa bir sifatga mansub hisoblab, ushbu sifatni azaliy va abadiy deb bilishadi [Moturidiy 2006, 28-29; al-Bayoziy al-Hanafiy 1989, 53; Shayxzoda 1899, 17]. Ularning ishonishlaricha, takvining qadimligi mukavvanning (bo'ldirilganning) qadimligini shart qilib qo'ymaydi

va Allohning yaratishdan oldin ham yaratguvchi deb atalishi joiz hisoblanadi [Moturidiy 2005, 173]. Ash'ariylar esa moturidiylardan farqli ravishda takvining Allohning haqiqiy sifati emasligi, balki nisbiy bir holat bo'lib, ta'sir o'tkazuvchining ta'sirlangan narsadagi nisbatidan aqlda hosil bo'ladigan tushuncha ekanligi, shunga ko'ra u zot sifati emas, balki ishlar sifati bo'lib, keyin paydo bo'lganligi, Allohning yaratish va rizq berishdan oldin yaratguvchi va rizq berguvchi bo'limgaganligini uqtirishadi [al-Bayoziy al-Hanafiy 1989, 53; Shayxzoda 1899, 17].

Mustamliy Buxoriy takvin masalasida moturidiylar izidan boradi. U "Sharh at-Ta'arruf" asarida Allohning ishlari sifatlarini azaliy sifatlar jumlasidan hisoblab, bu to'g'rida shunday degan: "Odamlarning yo'lboshchisi bo'lgan va musulmonlar dinda ularga ishonadigan musulmon faqihlari va din imomlarining aksariyati ulug' va buyuk Allohoi uzluksiz yaratguvchi va uzluksiz rizq berguvchi deb bilishadi. Alloh taologa hamdlar bo'lsinki, bizning qarashimiz ham shundaydir" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 330]. U yana shunday deydi: "Allohda azalda mavjud bo'limgan yangi sifatning keyinchalik Unda paydo bo'lishi mumkin emasdir. Ya'ni Alloh mahluqni yaratmasidan va [unga] rizq bermasidan oldin Uni xoliq va roziq deb bilmasag-u, U mahluqni yaratganidan va [unga] rizq bergenidan keyingina Uni xoliq va roziq deb atasak, U azalda ega bo'limgan sifatni Unga bergen bo'lamic. [Ammo biz] buni Alloh taologa ravo deb bilmaymiz. Chunki keyin yaratilgan sifat sifatlanuvchining keyin yaratilganligiga dalildir" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 330-331].

## **2.2. Allohga nisbat berilgan sifatlar.**

Moturidiylar Qur'on va hadisda Allohga nisbat berilgan yuz, qo'l, ko'z va shu kabi boshqa sifatlar borasida ko'proq tanzihiy (poklab yod etuvchi) qarashga ega bo'lib, ularning e'tiqodlaricha ushbu sifatlarning to'g'ri ma'nosida Allohga nisbat berilishi Allohning ushbu sifatlarga ega bo'lgan barcha mavjudotlarga o'xshatilishiga, ularning Allohga nisbat berilmasligi esa Allohning ushbu sifatlarga ega bo'limgan barcha mavjudotlarga o'xshatilishiga olib keladi [Moturidiy 2006, 37]. Shunga ko'ra ular bunday sifatlarni tavhid prinsipi bilan muvofiq bo'lgan tarzda tafsir qilishga uringanlar yoxud ularning haqiqiy ma'nosini ma'lum qilishni Allohning o'ziga qo'yib bergenlar [Sharif, Miyon Muhammad 1983, 374].

Abu-l-Hasan Ash'ariyning e'tiqodicha esa Allohga nisbat berilgan yuz, qo'l va ko'z kabi sifatlarni ularning to'g'ri ma'nosida tushunmoq kerak. U tajassumdan (Allohga jism xarakterini

berishdan) qochish maqsadida ushbu sifatlarga nisbatan “bilokayf” atamasini qo’llagan [Ash’ariy 1980, 290].

Mustamliy Buxoriy Allohma nisbat berilgan sifatlarni ularning to’g’ri ma’nosida talqin qilishdan saqlanib, ularni ta’vil qilish tarafdori bo’lgan. U bu to’g’rida shunday degan: “Agar Allohma nisbat berilgan sifatlar to’g’risida o’z aqlimizda munosib ta’vil topa olsak, ularni ta’vil qilishimiz kerak. Aks holda uning ta’vilini Allohning o’ziga qo’yib berib, Allohning kitobi va hadisni emas, balki o’z aql va fahmimizni kamchilikda ayblaylik” [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 311]. Bu esa Mustamliyning ushbu masalada ham moturidiylar qarashlariga ergashganligini ko’rsatadi.

### **2.3. Eshitish va ko’rish.**

Moturidiya va ash’ariya Allohning eshitish va ko’rish sifatlari bog’liq bo’lgan narsalar to’g’risida ham turlicha qarashlarga egadirlar. Moturidiylar e’tiqodi bo’yicha eshitish sifati eshitiladigan narsalar, ko’rish sifati esa ko’rinadigan narsalarga bog’liq bo’lib, ushbu ikki sifat bir-biridan farq qiladi [at-Taftazoniy 1988, 40]. Ularning ishonishlaricha, eshitishning eshitiladigan narsalarga, ko’rishning esa ko’rinadigan narsalarga bog’liq ekanligi inkor qilib bo’lmaydigan ikki tushuncha bo’lib, Qur’on va hadissdan olingandir [Shayxzoda 1899, 10]. Ash’ariylar esa bunga qarama-qarshi o’laroq eshitish va ko’rish eshitiladigan narsa va ko’rinadigan narsalardan tashqari har qanday boshqa narsaga bog’liq bo’lishi mumkin, deganlar [at-Taftazoniy 1988, 40]. Ularning e’tiqodicha, ko’rinadigan narsalarni ko’rish orqali anglash Allohma vojib emas, balki o’sha narsani eshitish orqali anglash Unga joizdir. Ammo Allohning odati shunday shakllanganki, uning anglashi ko’rish orqali amalga oshadi. Eshitish sifati borasida ham qoida shundaydir [at-Taftazoniy 1988, 40].

Mustamliy Buxoriy ham moturidiylar kabi eshitish va ko’rish sifatlari bog’liq bo’lgan narsalarni bir-biridan alohida deb bilib, shunday degan: “Eshitish ko’rish bermaydigan natijani beradi. Chunki eshitish eshitiladigan narsa va ko’rish ko’rinadigan narsalar bilan hosil bo’ladi” [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 258]. U boshqa bir o’rinda shunday degan: “Ushbu ikki sifat bir xil bo’la olmaydi. Chunki bilim hosil bo’lishi uchun qilish obyekti emas, balki bilish obyekti, qilish hosil bo’lishi uchun esa bilish obyekti emas, balki qilish obyekti kerak bo’ladi. [Xuddi] shuningdek, eshitish hosil bo’lishi uchun ko’rinadigan narsa emas, balki eshitiladigan narsa ko’rish hosil bo’lishi uchun esa eshitiladigan narsa emas, balki ko’rinadigan narsa, bo’lishi kerak” [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 323].

### **3. Boshqa masalalar.**

#### **3.1. Jabr va ixtiyor.**

Turli aqidaviy mazhablar va oqimlarda insonning o'z xatti-harakatlari va ishlarida qanchalik darajada ixtiyorli va mustaqil, shuningdek, qay darajada javobgar ekanligi borasida ham turlicha qarashlar bayon etilgan. Jumladan, ayrimlar "Alloh bandalarning ishlarini yaratuvchi emas, balki insonlar o'z ishlarini o'zlarini yaratadilar", deb aytsalar [al-Foxuriy 1979, 134; Mashkur 1989, 415], boshqa bir guruh kishilar Allohnинг yaratuvchiligi insonlarning barcha ishlarini ham qamrab olishini uqtirib, insonlarning o'z ishlarining yuzaga kelishidagi o'rnini yo'qqa chiqqanganlar va shu tariqa mutlaq jabrga ergashganlar [Abu Azaba 1996, 79; Mashkur 1989, 415].

Biroq moturidiylar va ash'ariylar bu o'rtada na mutlaq jabrni, na mutlaq ixtiyorni ma'qullaganlar. Ular kasb (o'zlashtirish) nazariyasini o'rta ga tashlaganlar. Ushbu nazariyaga ko'ra, Allah ishlarni yaratadi, insonlar esa ularni o'zlashtirib oladilar. Ular kasb nazariyasini "Uning kasb etgani (yaxshiligi) – o'ziga va orttirgani (yomonligi) ham o'zigadir" kabi oyatlarga tayanib ishlab chiqqanlar [Куръони карим, Бақара сураси, 286-оят]. Biroq ushbu ikki mакtab vakillari ushbu oyat tafsiri borasida turlicha qarashlarga egalar. Moturidiylar bu to'g'rida so'z yuritganda ko'proq taklif (burch) va jazo (mukofot yoki jazo) nuqtayi nazaridan yondashganlar. Ash'ariylar esa ko'proq bu masalaga Allohnинг mashhiyyati (irodasi) nuqtayi nazaridan yondashib, uning jabariycha talqinga ega ekanligiga e'tibor qaratishgan. Moturidiylar e'tiqodiga ko'ra inson o'z ishiga ta'sir ko'rsata oladigan kuch va istakka ega. Bu ta'sir yaratilishga sabab bo'lmasa-da, ishning toat yoki ma'siyat xarakteriga ega bo'lishiga sabab bo'ladi [Moturidiy 2005, 167-168]. Ularning e'tiqodicha, insonlar qiluvchi bo'lib, ish ularga tegishlidir. Insonning ishini Allahga tegishli deb bilish esa ushbu ishning insonga tegishli emas, degani emas [Moturidiy 2006, 205-206, 266]. Ash'ariylar bunga qarama-qarshi ravishda kasbni quyidagicha tafsir qilganlar: banda biror ishni qilishni istasa, Allah o'sha ishni unda yaratadi, bunda insonning istashining o'zi Allah kuchi bilan yaratiladi. Shunga ko'ra, inson ishni o'zlashtirib olishdan tashqari unga biror bir ta'sir o'tkaza olmaydi.

Mustamliy Buxoriy o'zining bu to'g'ridagi batafsil bahsida insonni haqiqiy ish egasi deb bilgan. U jabr va ikroh (kishini o'zi istamagan ishiga majburlash)ga qarshilik qilib, insonni o'z ishlarida ixtiyorli (mustaqil) deb tanishtirgan. Uning e'tiqodicha

inson o'z ishlarida ixtiyorli bo'limganida edi, yaxshi ishlari uchun mukofotlash va yomon ishlari uchun azoblashdan ma'no bo'lmasdi. Mo'minning imon keltirishi uning kofir bo'lishdan to'silganligi yoxud kofirning kufr keltirishi unda imon keltirish imkoniyatining yo'qligi sababli emas. Balki, inson nimani qilishni istasa, Alloh o'shani unda yaratadi. Mustamliy bu to'g'rida shunday yozadi: "Ushbu toifaga mansub kishilarning birgalikdagi qarashlariga ko'ra, bandalar haqiqatdan ham ish va o'zlashtirishga ega bo'lib, ana shu ishlari tufayli mukofotlanadilar yoki jazolanadilar. Amr va nahiylam xuddi shu sababli yuborilgan bo'lib, xuddi ana shu ish borasida va'd va va'id kelgandir... Haq ahli (ahli sunnat val-jamoat)ning aytishicha, bandada ish va ixtiyor bordir. Chunki menda ish bo'limganida edi meni qilishga buyurish xato bo'lgan bo'lardi" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 442-443]. U boshqa bir o'rinda shunday deydi: "Buyukdan-da buyuk Alloh mo'min qay narsani ixtiyor etsa, unda o'sha ixtiyorni yaratdi, shuningdek, qay narsani istamasa, unda o'sha narsani yaratmadi. Kofir va mo'min o'zi ixtiyor qilgan narsanining ziddini qilishdan to'silmagan hamda o'zi o'zlashtirigan narsani qilishga majburlangan emas. Balki u nahiyl qilingan narsadan qaytarilgan bo'lsa-da, jabr asirligida emas, amr qilingan bo'lsa-da, amr va nahiyl qilingan ishlarni qilishda ixtiyorlidir. Demak, bandani imon keltirishga buyurib, kufr keltirishdan qaytargan ekanlar, u kufr keltirishdan ham to'silmagan, imon keltirishga ham majburlanmagan" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984-1987, 454-456].

Yuqorida aytib o'tilganlar, ayniqsa Mustamliy Buxoriyning insonning erkinligi va ixtiyorliligi to'g'risida aytganlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, u bu masalada moturidiylar tomonini olgan.

### **3.2. Allohning kofirga ne'mat berishi.**

Ahli sunnat val-jamoat mutakallimlari o'rtasidagi bahsli masalalardan yana biri "kofir bu dunyoda xuddi mo'min kabi Allohning ne'matlaridan bahramand bo'ladimi yoki kufri tufayli Alloh undan ne'matini darig' tutadimi?" degan savoldir. Moturidiylar e'tiqodiga ko'ra, Alloh kofirga ne'mat beradi, ammo bu ne'mat faqatgina bu dunyoda unga nasib qiladi [Moturidiy 2005, 168-169]. Ash'ariylar moturidiylarga qarama-qarshi o'laroq shunday qarashga egalar: "Kofir bu dunyoda ham, oxiratda ham ne'mat egasi bo'lmaydi. Alloh unga bergen tiriklik va rizq uni Allohga dushmanlik qilishga emas, balki Allohga toat qilish va Uning roziligidagi erishishga sarflash sharti bilangina ne'mat hisoblanadi. Aks holda u ne'mat hisoblanmaydi" [Abu Azaba 1996, 43; Moturidiy 2005, 169].

Mustamliy Buxoriyning bu masaladagi qarashlari moturidiylar qarashlariga o'xshab ketadi. Chunki u ham kofirning bu dunyoda ne'matga ega bo'lishiga ishonadi. Uning e'tiqodicha kofir mo'min kabi bu dunyoning ne'matlardan foydalanadi, ammo oxirat ne'matlari faqatgina mo'minlarga atalgan: "Ulug' va buyuk Alloh o'z kitobining bir necha o'rnida bu dunyoning ne'matlari mo'min va kofir o'rtasida mushtarak ekanligi, [ammo] oxirat [ne'mati] faqatgina mo'minga atalganligini eslatgan. Jumladan, [Alloh bu to'g'rida] shunday buyurgan: "[Ulardan] kofir bo'lganlarini esa, biroz rizqlantirib, so'ngra do'zax azobiga mubtalo eturman" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 535].

### **3.3. Toqatdan tashqari ishga burchli qilish.**

Allohning ishlari bilan bog'liq bahslardan yana biri bandani toqatidan tashqari ishga burchli qilishi masalasidir. Moturidiylarning e'tiqodicha Alloh bandalarini toqatidan tashqari ishlarni qilishga burchli qilmaydi. Toqatdan tashqari ishga burchli qilish joiz bo'lmasdan, aql nuqtayi nazaridan ham yomondir [Moturidiy 2005, 171]. Ash'ariylar, Allohning qudrati mutlaq bo'lib, u bandalarini kuchlari yetmaydigan narsalarga ham burchli qilishi joizdir, deganlar [Abu Azaba 1996, 127; Subhiy 1985, 83].

Mustamliy Buxoriy ham, garchi bandalarga ularning toqatidan tashqari ishlarning yuklanishi mumkinligini e'tirof etsa-da, amalda, xuddi moturidiylar kabi, Alloh ularni faqatgina ularning imkoniyati darajasidagi ishlarni bajarishga burchli qilishiga ishonadi: "Shuni bilib qo'ymoq lozimki, garchi Haq taolo o'z bandalari zimmasiga toqat qilib bo'ladigan va toqat qilib bo'lmaydigan ishlarni yuklashi mumkin bo'lsa-da, bularning barchasiga qaramasdan [bandalarning] zohiriga toqat qilib bo'ladigan ishlarni va [bandalarning] botiniga toqat qilib bo'ladigan yuklarni yulkadi. [Bandalarning] zohiridan ularni jazolaydigan darajadagi emas, balki ular toqat qila oladigan xizmatni talab qildi. Agar [Haq taolo] ularni jazolaydigan darajadagi [ibodatni] talab qilganida edi, barcha [bandalar] halok bo'lgan bo'lishardi. Qanchalik urinishlariga qaramasdan o'zlarini ayb-nuqsonli deb bilgan payg'ambarlar alayhumussalomning istig'forlari shu ma'noda edi. Ayb-nuqsonli kishining esa uzr so'rashdan boshqa chorasi yo'q. Shuningdek, o'zini jazolaydigan darajadagi sirni emas, balki toqat qilib bo'ladigan darajadagi sirni yubordi" [al-Mustamliy al-Buxoriy 1984–1987, 1568].

### **Xulosa**

Mustamliy Buxoriyning aqidaviy masalalarga oid qarashlari,

jumladan, kalom mакtablarining uning kalomiy mulohazalariga ta'siri masalasiga bag'ishlangan ushbu maqolamizda quyidagi asosiy xulosalarga keldik:

1. Mustamliy Buxoriyning "Sharh at-Ta'arruf" asari kalomga bag'ishlab yozilgan muhim asarlardan biri bo'lsa-da, shu kunga qadar uning kalom ilmidagi o'rni va ahamiyati, jumladan, Mustamliyning kalomiy qarashlari keng va chuqr tadqiq qilinmagan, uning qarashlarida kalom mакtablarining ta'siri qanchalik ekanligi aniqlanmagan.

2. Mustamliy Buxoriy kalomga oid masalalarga ahli sunnat val-jamoat aqidasi nuqtayi nazaridan yondashgan bo'lib, bunda asosan sunniylikda mavjud bo'lgan ikki kalom mакtabi – moturidiya va ash'ariya ta'limotlarga tayangan.

3. Mustamliy Buxoriy moturidiya va ash'ariya kalom maktablari qarashlarida ixtilofli bo'lgan masalalardan quyidagi to'rttasida ash'ariylarga ergashgan: 1) ish-harakatning yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlash; 2) Alloh tomonidan yomon ishning sodir bo'lish-bo'lmasligi; 3) toat qiluvchini azoblash va osiyni mukofotlash; 4) baxtiyorlik va baxtiqarolik.

4. Mustamliy Buxoriy moturidiya va ash'ariya kalom maktablari qarashlarida ixtilofli bo'lgan masalalardan quyidagi o'n bittasida moturidiylarga ergashgan: 1) imonning ta'rifi; 2) imonning ko'payishi va kamayishi; 3) imonda istisno; 4) imonda taqlid; 5) imon va islom; 6) takvin (bo'ldirish); 7) Allohga nisbat berilgan sifatlar; 8) eshitish va ko'rish; 9) jabr va ixtiyor; 10) Allohnning kofirga ne'mat berishi; 11) toqatdan tashqari ishga burchli qilish.

### **Adabiyotlar**

- Асророва, Л. 2006. "Шарҳи таъарруф" – тасаввуф тарихи бўйича муҳим манба". *Имом ал-Бухорий сабоқлари* 1: 33. Тошкент.
- Кныш, А.Д. 2004. *Мусульманский мистицизм*. Краткая история. Пер. с англ. М.Г.Романов. СПб.: Изд-во «Диля».
- Ульрих, Рудольф. 1999. *Ал-Матуриди и суннитская теология в Самарканде*. Перевод с немецкого Людмилы Трутановой; под ред. Олега Лукина. Алматы: Фонд «XXI век».
- Сатторов, Абдували. 2015. «Нигоҳе ба «Шарҳи Таарруф»и Мустамлии Бухорой». *Гуманитарные науки* 3 (44): 130-134. Таджикистан, Худжанд.
- Сатторов, Абдували. 2015. «Шарҳи таарруф» ва таъсири он бар манобеи дигари сўфия». Ахбори донишгоҳи давлатии ҳуқуқ, бизнес ва сиёсати Тоҷикистон. Силсилаи илмҳои гуманитарӣ. *Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия*

- Холмўминов, Жаъфар. 1994. “Абу Иброҳим Исмоил Бухорий рочеъ ба Ҳаким Тирмизи”. *Овози тожик* 3, 16 февраль. Тошкент.
- انصاری، حسن. ناگفته هایی در باره کتاب شرح التعرف لمذهب التصوف تالیف مستملی بخاری به سهم آن در 1396/05/01 // www.ansari.kateban.com/post/2660 // کلام ماتریدی [www.ansari.kateban.com/post/2660](http://www.ansari.kateban.com/post/2660).
- علی مهمان نواز. بررسی جریان های کلامی اثرگذار بر التعرف کلابادی // مجلة مطالعات عرفانی. بهار و تابستان 1395. شماره 23. صص 179-206.
- أبو زهرة، محمد. تاريخ المذاهب الإسلامية في السياسة والعقائد وتاريخ المذاهب الفقهية. – القاهرة: دار الفكر العربي، 1996.
- أبو عذبة، حسن بن عبدالحسن. الروضۃ البهیۃ فيما بین الاشاعرة و الماتریدیۃ. محقق: على فريد درحوج. – بيروت: دار السیل الرشاد، 1416 هـ.
- الأشعری، أبوالحسن على بن اسماعیل. الإبانة عن أصول الديانة. محقق: بشیر محمد عیون. – دمشق-بيروت: دارالبیان، 1420 هـ.
- الأشعری، أبوالحسن على بن اسماعیل. مقالات الإسلاميين و اختلاف المسلمين. مصحح: هلموت ریتر. – بيروت: دار النشر فرانز شتاينر، 1400 هـ.
- الأشعری، أبوالحسن على بن اسماعیل. اللمع في الرد على أهل الزبغ والبدع. مصحح: حمودة غرابة. – القاهرة: المکتبة الأزهرية للتراث ، 1993.
- البياضی الحنفی، کمال الدین احمد. إشارات المرام من عبارات الإمام أبي حنیفة النعمان في أصول الدين. محقق: یوسف عبدالرازق. – مصر: شرکت المصطفی البانی، 1368.
- التفقارانی، سعدالدین. شرح المقاصد في علم الكلام. محقق: عبدالرحمن عمیرة. 4 ج. – بيروت: علم الكتب، 1409 هـ.
- التفقارانی، سعدالدین. شرح العقاید النسفیة. محقق: احمد حجازی السقا. – القاهرة: مکتبة الكلیات الازھریة، 1408 هـ.
- المستملی البخاری، ابو ابراهیم اسماعیل بن محمد. شرح التعرف لمذهب التصوف. به تصحیح محمد روشن. در 5 ربع. ریع های 1، 2، 3، 4 و 5. – تهران: اساطیر، 1366-1363.
- الفاخوری، حنا؛ الجر، خلیل. تاریخ فلسفه در جهان اسلامی. مترجم: عبدالحمد آیتی. – تهران: کتاب زمان، 1358.
- دہباشی، مهدی. تحلیل از وجوده معرفت حق و حقیقت بر اساس شرح التعريف (اسماعیل بن محمد مستملی بخاری) // مجلة دانشکده ادبیات و علوم انسانی دانشگاه اصفهان. سال 1376. شماره 9. صص 52-37.
- جلالی، لطف الله. تاریخ و عقاید ماتریدیة. – قم: مرکز مطالعات و تحقیقات ادیان و مذاہب، 1386.
- جهانگیری، محسن. مجموعه مقالات (1): کلام اسلامی. جلد اول. – تهران: مؤسسه انتشارات حکمت، 1383.
- الجوینی، عبدالملک بن عبدالله. الإرشاد إلى قواطع الأدلة في أصول الإيمان. محقق: الشیخ ذکریا عصیرات. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1416 هـ.
- مینوی، مجتبی. کتاب شرح تعریف // مجلة یغما. شماره 9 سال 1327. صص 413-405.
- بنی‌رامین ثابت، علی رضا حاجیان نژاد. بررسی مبانی نظری حکایات شرح تعریف بر اساس کلام اسلامی و فلسفه مشاء // مجموعه مقاله های دهمین همایش بین المللی ترویج زبان و ادبیات فارسی دانشگاه حقق اردبیلی 4-6 شهریورماه 1394). صص 28-32.
- مشکور، دکتر محمد جواد. فرنگ فرق اسلامی. – مشهد: آستان قدس رضوی، 1368.
- الماتریدی، أبو منصور محمد بن محمد. التوحید. محقق: عبدالغنى النابلسى. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1427 هـ.
- الماتریدی، أبو منصور محمد بن محمد. تأویلات أهل السنة. محقق: مجدى باسلوم. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1426.
- پورنامداریان، تقی؛ کویا، فاطمه؛ پشتدار، علی محمد؛ محمدی، مریم؛ مقایسه تحلیلی مبدأ و مقصد روح در آیین زرتشت و بهود با سه اثر از عارفان مسلمان (المعنی في التصوف)، شرح التعرف لمذهب التصوف، کشف المحجوب) // مجلة پژوهش‌های ادب عرفانی (گوهر گویا). بهار و تابستان 1392 – شماره 24. ص از 1 تا 26.
- القاری، علی محمد. شرح کتاب الفقه الاکبر. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1428 هـ.

- روضتیان سیده مریم، میرباقری فرد سیدعلی اصغر؛ جایگاه شرح تعرف در میان مأخذ تذكرة الاولیاء // فصلنامه زبان و ادب پارسی، شماره 44، تابستان 1389 - 1389. از صفحه 9 تا صفحه 28
- روشن، محمد؛ کهن ترین متن صوفیانه // کیهان فرنگی. مهر 1372 - شماره 102 (2) صفحه - از 12 تا 13
- ربانی گلپایگانی، علی. ماتریدیه // مجله «کیهان اندیشه». قم، شماره 53، فروردین و اردیبهشت سال 1373 سمیعی (گیلانی)، احمد؛ درباره شرح تعرف // مجله معارف. آذر - اسفند 1370 - شماره 24 (50) صفحه - از 107 تا 107.
- سمیعی گیلانی، احمد. فواید زبانی شرح نعرف // مجله نشر دانش. خرداد و تیر 1371. شماره 70. صص 21-12.
- السبحانی، محمد جعفر. المذاهب الاسلامیة. - قم: مؤسسه امام صادق (ع)، 1423 هـ
- الصبحی، احمد محمود. فی علم الكلام. الجزء الثاني. - بیروت: دار النہضة العربیة، 1405 هـ
- تمیم داری زهره، اسلامی زینب. ماهیت و غایت درد و رنج در شرح تعرف و کشف المحجوب // مطالعات عرفانی (فصلنامه علمی و پژوهشی دانشکده علوم انسانی دانشگاه کاشان): پاییز و زمستان 1390، شماره 14 ; از صفحه 55 تا صفحه 82
- یوسفی، سهیلا. شرح التعرف لمذهب التصوف // گزارش میراث. شماره پنجم و ششم، آذر - اسفندماه 1391. صص 158-161.
- شریف، میان محمد. تاریخ فلسفه در اسلام. تهیه و ترجمه فارسی زیر نظر: نصرالله پورجوادی. - تهران: انتشارات مرکز نشر دانشگاهی، 1362
- شیخ زاده، عبدالرحیم بن علی. نظم الفرائد و جمع الفوائد فی بیان المسائل التی وقعت فیها الاختلاف بین الماتریدیة و الاعشریة فی العقائد. - مصر: مطبعة الابدية، 1317 هـ

## References

- Asrorova, L. 2006. "Sharhi taarruf" – tasavvuf tarihi bujicha muhim manba". *Imom al-Buhorij saboqlari* 1: 33. Toshkent.
- Knysh, A.D. 2004. *Musul'manskij misticizm. Kratkaja istorija*. Per. s angl. M.G.Romanov. SPb.: Izd-vo «Dilja».
- Ul'rih, Rudol'f. 1999. *Al-Maturidi i sunnitskaja teologija v Samarkande*. Perevod s nemeckogo Ljudmily Trutanovo; pod red. Olega Lukina. Almaty: Fond «XXI vek».
- Sattorov, Abduvali. 2015. «Nigohe ba «Sharhi Taarruf»i Mustamlii Buhoroj». *Gumanitarnye nauki* 3 (44): 130-134. Tadzhikistan, Hudzhand.
- Sattorov, Abduvali. 2015. «Sharhi taarruf» va tasiri on bar manobei digari sufija». Ahbori donishgohi davlatii huquq, biznes va sijosati Tochikiston. Silsilai ilmhoi gumanitarj. *Vestnik Tadzhikskogo gosudarstvennogo universiteta prava, biznesa i politiki. Serija gumanitarnyh nauk* 3(64): 69–76.
- Holmuminov, Zhafar. 1994. "Abu Ibrohim Ismoil Buhorij roche ba Hakim Tirmizi". *Ovozi tozhik* 3, 16 fevral'. Toshkent.
- Muhammad Abu Zahra. 1996. *Islomdagij sijosij, aqidavij va fiqhij mazhablar tarihi* (arab tilida). Qohira: Dor ul-fikr al-arabij.
- Hasan ibn Abdulmuhsin Abu Azaba. 1416/1996. *Ar-Ravzat al-bahijja fijmo bajn al-ashoira va-l-moturidija* (arab tilida). Ali Farid Dahrugh tadqiqi va tahriri ostida. Bajrut: Dor us-sabil ar-rashod.
- Abu-l-Hasan Ali ibn Ismoil Ashariy. 1420/1999. *al-Ibona an usul ad-dijona* (arab tilida). Bashir Muhammad Ujun tahriri ostida. Damashq-Bajrut: Dor ul-bajon.
- Abu-l-Hasan Ali ibn Ismoil Ashariy. 1400/1980. *Maqolot al-islomijjin va ihtilof al-musallin* (arab tilida). Helmut Ritter tahriri ostida. Bajrut: Franc Shtajner.
- Abu-l-Hasan Ali ibn Ismoil Ashariy. 1993. *al-Luma fir-radd ala ahl az-zijf va-l-*

- bida (arab tilida). Hamuda Faroba tahriri ostida. Qohira: Al-Maktaba al-azharija lit-turos.
- Hasan Ansoriy. *Mustamljij Buhorijning "Sharh at-Taarruf li-mazhab at-tasavvuf"* kitobi va uning moturidiya kalomidagi urni tugrisida ajtilmagan gaplar (fors tilida). [www.ansari.kateban.com/post/2660](http://www.ansari.kateban.com/post/2660) // 2017 j. 23 ijl'.
- Ali Mehmonnavoz. 1395/2016. "Kalobodijning 'at-Taarruf' asariga tasir utkazgan kalomij zharajonlar tadqiqi". *Irfonij tadqiqotlar* 23: 179-206. Jeron, Koshon.
- Hanno Halil al-Zhir al-Fohuriy. 1358/1979. *Islom dunjosidagi falsafa tarihi*. Tarzhimon: Abdulmuhammad Ojatij. Tehron: Kitobi zamon.
- Kamoliddin Ahmad Bajozij al-Hanafiy. 1368/1989. *Ishorot al-marom min iborot al-imom Abij Hanifa an-Numon fij usul ad-din* (arab tilida). Jusuf Abdurazzoq tahriri ostida. Misr: Shirkat al-Mustaf o al-bonij.
- Mehdij Dehboshi. 1376 (1997). "Ismoil ibn Muhammad Mustamljij Buhorijning "Sharh at-Taarruf" asari asosida haq va haqiqat marifatining turli zhihatlari tahlili". *Isfahon universiteti Adabijot va gumanitar fanlar fakul'teti zhurnalni*, 9: 37-50. Jeron, Isfahan.
- Abd-ul-Malik bin Abdulloh Zhuvajniy. 1416/1995. *al-Irshod ilo qavoti al-adilla fij usul al-itiqod* (arab tilida). Zakarijo Amirot tahriri ostida. Bajrut: Dor ul-kutub al-ilmiya.
- Lutfulloh Zhalolij. 1386/2007. *Moturidija tarihi va aqidalari* (fors tilida). Qum: Dinlar va mazhablarni urganish va tadqiq etish markazi.
- Muhsin Zhahongiriy. 1383/2004. *Maqolalar tuplami* (1): Islom kalomi (fors tilida). 1-zhild. Tehron: «Hikmat».
- Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy. 1427/2006. *at-Tavhid* (arab tilida). Abdulgani Noblusij tahriri ostida. Bajrut: Dor ul-kutub al-ilmiya.
- Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy. 1426/2005. *Tavilot ahl as-sunna* (arab tilida). Mazhdij Boslum tahriri ostida. Bajrut: Dor ul-kutub al-ilmiya.
- Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad Mustamliy al-Buhoriy. 1363-1366 /1984-1987. *Sharh at-Taarruf li-mazhab at-tasavvuf* (fors tilida). 5 rublik. 1, 2, 3, 4 va 5-rublar. Muhammad Ravshan tahriri ostida. Tehron: Asotir.
- Muhammad Zhavod. 1368/1989. *Islomijfirqalar madanijati* (fors tilida). Mashhad: Ostoni Qudsi Razavij.
- Muzhtabo Minuviy. 1327 (1948). "Sharhi taarruf" kitobi". Ja'fmo 9. 405-413. Tehron.
- Mino Rominsobit, Alirizo Hozhijonnezhod. 2015. "Sharh at-Taarruf" asaridagi hikojatlar nazarij asoslарining islom kalomi va peripatizm falsafasi asosidagi tadqiqi". *Muhaqqiq Ardabilij nomidagi Ardabil universiteti Fors tili va adabijotini rivozhlantirish bujicha uninchi halqaro konferencija maqolalari tuplami* (fors tilida), 28-32.
- Purnomdorijon, Taqiy; Kupo, Fotima; Ali Pushtdar, Muhammad; Muhammadij, Marjam. 1392 (2013). "Zardushtijlik va jahudijlik dinlarida ruhning manbasi va manzili va musulmon oriflarining uch asari – "Kitob al-luma fi-t-tasavvuf", "Sharh at-Taarruf" va "Kashf al-mahzhub" bilan qijosi". *Gavhari gujo* 24: 1-26. Tehron.
- Ali Muhammad Qoriy. 1428/2007. «*al-Fiqh al-akbar*» kitobiga sharh (arab tilida). Bajrut: Dor ul-kutub al-ilmiya.

- Rabbonij Gulpojagonij, Ali Moturidiya. 1994. "Kajhoni andesha". *Tafakkur olami* 53. Qum.
- Muhammad Ravshan. 1372/1993. "Jeng qadimgi forschasufijona matn". *Kajhoni farhangij* 102: 12–13. Tehron.
- Ravzotijon, Sajjida Marjam; Mirboqirij, Sajjid Ali Asgar. 2010. "Sharh at-Taarruf"ning "Tazkirat ul-avliyo" manbalari orasidagi urni". *Zabon va adabijoti forsij* 44: 9–28. Tehron.
- Ahmad Samijj Giloniy. 1370 (1991). "Sharhi taarruf" tugrisida". *Maorif* 24: 58–107.
- Ahmad Samijj Giloniy. 1371/1992. "Sharhi taarruf"ning til hususijatlari". *Nashri donish* 70: 12–21.
- Sadiddin at-Taftazonij. 1409/1989. *Sharh al-maqosid fi ilm al-kalom* (arab tilida). Abdurahmon Umajra tahriri ostida. Bajrut: Olam ul-kutub.
- Sadiddin at-Taftazonij. 1408/1988. *Sharh al-aqoid an-nasafija* (arab tilida). Ahmad Hizhozij as-Saqqa tahriri ostida. Qohira: Maktabat al-kullijot al-azharija.
- Muhammad Zhafar Subhoniy. 1423/2002. *Islomij mazhablar* (arab tilida). Qum: Imom Sodiq.
- Ahmad Mahmud Subhiy. 1405/1985. *Kalom ilmi haqida* (arab tilida). 2-zhild. Bajrut: Dor un-nahzat al-arabiya.
- Zuhra Tamimdoriy, Zaynab Islomiy. 1390 (2011). "Sharh at-Taarruf" va "Kashf al-mahzhub"da baloning mohijati va chegarasi". *Mutolioti irfonij* (Irfonij tadqiqotlar) 14: 55–82. Eron. Koshon.
- Suhaylo Jusefiy. 2012–2013. "Sharh at-Taarruf li mazhab at-tasavvuf". *Guzorishi meros* 5: 158–161. Tehron.
- Mijon Muhammad Sharif. 1362/1983. *Islomdagi falsafa tarihi* (fors tilida) [Tarzhimon va nashrga tajjorlovchi: Nasrulloh Purzhavodij]. Tehron: Universitet nashr markazi.
- Abdurahim ibn Ali Shajhzoda. 1317/1899. *Moturidijlar va asharijlar urtasidagi ihtilofli masalalar bajoniga bagishlangan «Jagonalar tizimi va fojdalar mazhuasi» asari* (arab tilida). Misr: Matbaa al-adabija.

**Muallif haqida:** Rahimov Komiljon Rahmatovich – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti.

**Iqtibos uchun:** Rahimov, K. R. 2020. "Mustamli Buxoriy va moturidiya ta'limoti". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 56–78.

**About the author:** Kamiljan R. Rahimov – Doctor of Philosophy in History (PhD), Senior Researcher, Oriental Studies of the name Abu Rayhan Beruni at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

**For citation:** Rahimov, K. R. 2020. "Mustamli Bukhari and the Teachings of Maturidia". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 56–78.